

Tanqidiy Fikrlash Ko'nikmalarini Rivojlantirish Nazariyalari

Ramazonov Jaxongir Jalolovich

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rajabova Sadoqat Xoliq qizi

Osiyo xalqaro universiteti, 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola tanqidiy fikrlash va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, jarayonning talaba va o'qituvchilarga samarali tomonlari haqida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: tanqidiy fikrlash, tanqidiy tahlil, bilim, ko'nikma, aqliy operatsiyalar, analiz va sintez, klister, sinkveyn.

Kirish. Bugungi kecha-kunduzda rivojlanib borayotgan dunyoda har bir shaxs har tomonlama rivojlanishi, unda har bir ko'nikmalarining bo'lishi zarur. Yosh boladan boshlab, oliy ta'lim talabalarida, hattoki o'qituvchilarda ham tanqidiy fikrlash ko'nikmalar yuqori darajada bo'lishi faqatgina rivojlanish poydevori bo'lib xizmat qiladi. Tanqidiy fikrlash biz o'rganayotgan bilim yoki bajarayotgan ishimizni mukammal anglashimiz, muvaffaqiyatli natijalarga erishishimiz uchun kerak bo'ladigan ijobiy ko'nikmadir. Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" deb ta'kidlagan edilar.[1] Darhaqiqat har birimiz ma'lumotni chuqur tanqidiy tahlil qilib o'rganib, so'ng uni tadbiiq etsak, har bir fikr va g'oyalar noodatiiy, bir-biriga o'xshamaydigan, kamchiliklarsiz bo'ladi. Bu esa har bir o'quvchi, talaba, o'qituvchi, tadbirkor va umuman olganda har bir kasb egasi uchun yuksalish, ko'zlangan maqsadlarga tez va oson erishish uchun yordam beradi.

Nazariy tahlillar. Tanqidiy fikrlash atamasi ilk bor XX asr ikkinchi yarmida vujudga kelgan. Tanqidiy fikrlash haqida ko'pgina ta'riflar keltirilgan. Masalan Ennisning fikriga ko'ra, "tanqidiy fikrlash — bu e'tiqod va harakatni boshqaradigan kuzatish, tajriba, fikrlash, o'rganish yoki assotsiatsiya orqali to'plangan yoki hosil ma'lumotlarni kontseptsiyalash, qo'llash, tahlil qilish, sintez qilish va yoki baholashning intellektual va intizomli jarayoni. Shu o'rinda Ennis agar tanqidiy fikrlash ta'lim jarayonida qo'llanilsa, bu o'quvchilarni miya faoliyatini yaxshilaydi va matnlarni boshqacha tushunib o'zlashtirishlariga yordam beradi. [2]Xelperning so'zlariga ko'ra, tanqidiy fikrlash, birinchi navbatda, muammolarni hal qilish, hisoblash va ehtimollardan samarali foydalanish kabi o'rganish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi.

Dayana Xalpern «Психология критического мышления» kitobida tanqidiy fikrlash "fikr yuritishning shunday ko'rinishini anglatadiki, u vazminlik, mantiq va maqsadga yo'naltirilganlik bilan ajralib turadi"- deb yozadi.

Djeni Stil, Kert Meredis, Charlz Templarning "Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun o'qish va yozish" loyihasida quyidagicha fikr bildirilgan: «Odam tanqidiy fikrlar ekan, u yoki bu g'oyalar bilan tanishadi, ularni amalga oshirishdagi mumkin bo'lgan oqibatlarini ham e'tiborga oladi. Bunda odam bu g'oyalarni dastlab ma'lum darajadagi ishonchsizlik bilan idrok qiladi va qarama-qarshi nuqtai-nazarlar bilan taqqoslaydi. Ularni asoslash uchun qo'shimcha mulohazalar tizimidan foydalanadi va bular asosida o'z nuqtai-nazarini ishlab chiqadi». Tanqidiy fikrlash – g'oya va imkoniyatlarni ijodkorlik bilan uyg'unlashuvi, konsepsiya va axborotlarni qayta fikrlash va qayta qurishdek murakkab jarayondir. Bu faol va interaktiv bilishning bir necha darajalarida bir vaqtda

ro‘y beradigan jarayon ham bo‘lib hisoblanadi. anqidiy fikrlashda g‘oyalar va ularning ahamiyati ko‘pfikrlilik nuqtai-nazaridan ko‘rib chiqiladi hamda ular boshqa g‘oyalar bilan taqqoslanadi. Bu fikrlashning eng yuqori darajasi aqliy faoliyat bo‘lib, unda tahlil, taqqoslash, izohlash, qo‘llash, tortishuv, yangilik, muammolarni hal qilish yoki fikrlash jarayonini baholashga alohida e‘tibor beriladi. O‘zbek olimasi Sh. A. Abdullayeva “O‘quvchilarda reflektiv mushohada qilish ko‘nikmalarini shakllantirish” asarida: “ Tanqidiy fikrlash – fikr yuritishning shunday ko‘rinishiki, unda aqliy operatsiyalar (analiz, sintez, induksiya, deduksiya) ning barchasi ishtirok etadi” – deb yozadi. Demak talaba taqdim etilayotgan o‘quv materialini o‘zlashtirishi uchun bilish jarayonining induktiv (ayrim xususiy tajribalarni umumlantirib xulosa chiqarishga fikran harakat qilish) va deduktiv (umumiy ayrimlikka yuksalish) pog‘onalaridan o‘tadi.

Rixer ta‘biri bo‘yicha o‘rganish va fikrlashning ta‘rifi kognitiv psixologiya, falsafa va multimedia madaniyati ta‘limi sohasidagi tadqiqotlar natijalariga asoslanadi. Bu tadqiqotlarning asosiy natijalari:

1. Samarali va muttasil o‘rganish asosida talabalarning axborotlarni o‘zlashtirish, sintezlash va ularni to‘la egallash faolligi yotadi (Anderson va unga hammualiflar, 1985).
2. O‘rganish jarayoni fikrlash faoliyatini rivojlantirishning turli tuman strategiyalaridan foydalangandagina muvaffaqiyatliroq bo‘ladi. Bunday strategiya o‘rganish jarayonini yanada onglilashdiradi (Palinskar va Braun, 1989).
3. O‘rganish va tanqidiy fikrlash talabalarning aniq vazifalarga nisbatan yangi bilimlarni qo‘llash imkoniyatlariga ega bo‘lgan taqdirda rivojlanadi (Resnik, 1987).
4. O‘rganish talabalarning oldingi bilimlari, tajribalariga tayangandagina mustahkamlanadi. Bular talabalarning bilgan bilimlarini yangi axborotlar bilan bog‘lash imkoniyatini beradi (Ros, 1990).
5. Tanqidiy fikrlash va o‘rganish g‘oya va tajribalarning turli-tumanligini pedagoglar tushungan va qadrlagan vaqtdagina amalga oshadi. Tanqidiy fikrlash «yakkayu yagona to‘g‘ri javobni qabul qiladigan mentalitet jarayonida yuz bermaydi. [3;4;110]

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun muhit yaratish ham tez va oson sodir bo‘ladigan jarayon emas. Buning uchun avvalo fikrlovchilarga muayyan sharoit yaratib berish lozim. Talabalarga fikr yuritishi uchun vaqt va imkon berish, har qanday fikrlarini qabul qila bilish, har bir talabaning faolligini ta‘minlay olish, guruhda ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini uyg‘otib fikrlarini bayon qilishiga muhit yaratish, har bir fikrni xato emasligini takidlab ularning faol qatnashishlariga zamin hozirlash tanqidiy fikrlash jarayonini qizg‘in kechishini ta‘minlaydi. Shu o‘rinda talabalar darsda faol qatnashishi o‘z fikrini bayon qilib, boshqalarning fikrini ham eshitib, ular bilan g‘oya almashishi, fikrlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini o‘zaro baxslarda tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Tanqidiy fikrlash vaqt talab qiladi. Pirson, Xansen, Gordon (1979)lar ta‘kidlashadiki, o‘z fikrlarini ijod qilish go‘yo avvalgi g‘oya, tasavvur, uchrashuvlar va tajribalarni arxeologik jihatdan tadqiq qilishga olib keladi. Shuning uchun ham:

- ✓ fikrlarini o‘z so‘zlari bilan ifodalash;
- ✓ o‘zaro tanqidiy fikrlar almashish;
- ✓ o‘z go‘yalarini ifodalay olish va konstruktiv takliflarga javob ola bilish;
- ✓ fikrlarni muayyan go‘yalar qiyofasida, qulay muhitda amalga oshira olish va o‘z go‘yalarini to‘la va aniq ifodalay olish.[4;2]

Tanqidiy fikrlash talabalarga shu qatorda o‘z so‘z boyligini kengaytirishga hamda boshqa talabalarning tasavvurlari bilan tanishishga imkon beradi. Bu jarayon talabalar bilan bir qatorda o‘qituvchi uchun ham bir qator qulayliklar yaratadi:

- ✓ Talabalarning fikrlashini faollashtirib, ularning maqsadlarini aniqlashtiradi;
- ✓ Faol munozarali imkoniyat yaratib darsga qiziqishini oshiradi;

- ✓ Faol o‘quv faoliyatini ta‘minlab, o‘zgarishlarni va fikr yurituvchilarni rag‘batlantiradi;
- ✓ Talabalarni turli fikrlarni tinglab, o‘z savollarini berishga ham imkoniyat yaratadi.

Tanqidiy fikrlash qanday rivojlantirish kerak degan savolga birinchi navbatda shunday fikr bildirish mumkin: bilimlar bazasini kengaytirish ya‘ni ko‘proq kitob o‘qib bilimni oshirib, dunyo haqida yetarlicha malumotga ega bo‘lsagina tanqidiy fikr yuritish uchun zamin hozirlagan bo‘ladi. Bilim qanchalik ko‘p bo‘lsa, solishtirish va tahlil qilish shunchalik oson bo‘ladi. Muammoni tanqidiy baholashdan oldin uni har tomonlama ko‘rib chiqish, uning rivojlanishini kuzatib borish maqsadga muvofiq.

Tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun bir qancha metodlardan foydalanish mumkin. Masalan klasterlarga bo‘lish Bu pedagogik strategiya bo‘lib, talabalarning xohlagan mavzu bo‘yicha erkin o‘ylashga yordam beradi. U faqat g‘oyalarni orasidagi bog‘lanishlarni ta‘minlash imkoniyatini beradigan tuzilmani aniqlab olishni talab qiladi. U fikrlashning oddiy shakli emas, balki miya faoliyati bilan zid bog‘lanadi. Klasterlarga bo‘lishdan axborotlarni chorlash bosqichida ham, fikrlash bosqichida ham foydalaniladi. U muayyan mavzu sinchkovlab o‘rganilguncha fikrlash faoliyatini ta‘minlashda foydalanilishi mumkin. Bu metoddan foydalanish talabalarning tassavvurlarini yangicha bog‘lanishlar orqali grafik ko‘rinishda yaqqol ko‘rsatadi. G‘oyalarning chegaralash maqsadga muvofiq bo‘lmaydi, aksincha har bir fikr ustida ishlab uni kengaytirish lozim. Klasterlarga bo‘lish, Stil va Stil (1991)ning ta‘biricha, bu juda moslashuvchan strategiyadir. Uni individual tarzda ham guruhda ham qo‘llash mumkin. Guruh faoliyatida u guruh g‘oyalarning tinglovchi sifatida xizmat qiladi.

Sinkveyn metodi ham samarali metodlardan biridir. Sinkveyn so‘zi fransuzcha so‘z bo‘lib, besh degan tajjimini beradi. Demak, sinkveyn besh qatordan iborat she‘rdir.

Sinkveynni yozib chiqish qoidasi quyidagicha:

1. Birinchi qatorda bir so‘z bilan mavzu yoziladi (odatda ot so‘z turkumi)
2. Ikkinchi qatorda mavzu ikki so‘z bilan tavsiflanadi (sifat turkumiga oid so‘z bilan)
3. Uchinchi qatorda ushbu mavzuga oid hatti harakatlar uch so‘z bilan yoziladi.
4. To‘rtinchi qatorda mavzuga aloqadorlikni ko‘rsatuvchi to‘rt so‘zdan iborat gap yoziladi.

Sinkveyn - axborotlarni qisqacha bayon qilish, murakkab g‘oyalarni, sezgilarni, tasvurlarni bir necha so‘zlar vositasida bayon qilish imkoniyati borasidagi muhim malakadir. Bu boy tushunchalar zahirasi asosidagi o‘ylangan refleksiyaning talab qiladi. Sinkveyn bu she‘r bo‘lib, u biror voqea munosabati bilan yoziladigan yoki refleksiya qilinadigan qisqa ifodalarda axborot va materiallarning sintezlanishini talab etadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirish, iqtidorli bolalarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi usullarni ishlab chiqish, ularning mustaqil fikrlash darajasini yuksaltirish, ta‘lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llay olish ko‘nikmalarini rivojlantirish oliy ta‘lim sohasidagi davlat siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri ekanligini ta‘kidlab o‘tish joizdir.

Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, axborotlarni izlash, o‘ylab ko‘rish va fikrlash metodikalaridan foydalanish quyidagi muhim vazifalarni yechish imkoniyatini beradi:

- ✓ talabalarga maqsadlarini anglab olishga yordam beradi;
- ✓ mashg‘ulotlarda faolligini ta‘minlaydi;
- ✓ samarali munozaraga chorlaydi;
- ✓ talabalarning o‘zlari savollar tuzishi va uni savol tarzida bera olishi uchun yordam beradi;
- ✓ talabalarga o‘z shaxsiy bilimlarini ifoda qilishga yordam beradi;

- ✓ talabalarning shaxsiy mutolaasi motivatsiyasini qo'llab-quvvatlaydi;
- ✓ har qanday fikrlarga bo'lgan hurmat kayfiyatini yaratadi;
- ✓ talabalarda personajlarga bo'ladigan iztirobini o'stirishga yordam beradi;
- ✓ talabalarda qadrlanadigan fikrlashga sharoit yaratadi;

Pedagoglar olib borayotgan ishlar o'quvchining faollik, mustaqillik, tashabbuskorlik, ijodiy yondashuv, qiziqish, bilimlarni mustaqil izlashga qobiliyatli ya'ni o'qish jarayonida mazkur talaba shaxsini shakllantirish masalalariga javob beradigan sifatlarni rivojlantirish bilan uyg'unlashmog'i lozim.

Hozirgi vaqtda talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish juda muhim –talaba kitob o'qishdan zavqlana boshlaydi, ularni tahlil qilishni va mustaqil xulosalar chiqarishni o'rganadi, aqlli savollar berishni va ularga ijodiy javob topishni o'rganadi. O'qitish qiziqarli, chunki u yangi narsalarni o'rganishdan, kitobda topilgan bilimlar olamiga o'z hissiyatini qo'shishdan katta quvonch keltiradi. Bu o'qitish usullariga tayanib, tarix, geografiya yoki adabiyotni o'rganayotgan o'quvchi keyinchalik aniq emas, keraksiz yoki qiziq emasligini aytmaydi. O'qituvchilar va ota-onalar farzandlarining bu mavzuni bilishiga, tanqidiy va ijodiy fikrlashga qodir ekaniga ishonch hosil qiladilar. O'quvchi yoshlarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish, to'g'ri savollar berish, ularning e'tiborini to'g'ri yo'nalishga yo'naltirish, o'rgatish, mustaqil ravishda xulosa chiqarish va yechim topishni anglatadi. Talabalarga fikrlash uchun material beradigan, tashabbuskorlik va mustaqillikni kashf eta oladigan, ularga ruhiy stress, zukkolik va ijodkorlik kerak bo'lgan ta'lim faoliyati yoqadi. Shularni inobatga olib talabalarni bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanishga, ko'proq kitob bilan oshno bo'lishga yo'naltirish o'ta muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mirziyoyev Sh.M mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-shtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bagishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza. 2017-yil 14-yanvar.
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Tanqidiy_fikrlash
3. N.N. Azizxo' jayeve "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" 110-bet
4. <https://azkurs.org/3-mavzu-pedagogik-texnologiyalarning-shakllanishi-va-tadrijiy.html?page=2>